

16-DEKABR

2022



Toshkent tibbiyot akademiyasi



O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

Abu Rayhon Beruniy ilmiy- madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

O'zbekiston Respublikasi
Sog'liqni saqlash vazirligi

www.ssv.uz

CYBERLENINKA

Google
scholar

Mazkur to‘plamda Toshkent tibbiyot akademiyasining “Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o‘rni” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari kiritilgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni va sifatiga muallif(lar) javobgar hisoblanadi.

Toshkent - 2022



Tahrir hay'ati

Shadmanov Alisher Kayumovich	<i>Rektor, Tashkiliy qo'mita raisi</i>
Bobomuratov Turdiqul Akramovich	<i>Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor</i>
Azizova Feruza Lyutpillaeva	<i>Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor</i>
Norqulov Suxrob Dosmurodovich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri</i>
Xudoyqulova Gulnora Karimovna	<i>Jamoat salomatligi kafedrasini mudiri</i>
Alimova Saboxat Gazievna	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti</i>
Umarova Farida Saidikramovna	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
Muyassarova Muxabbat Muxamaddievna	<i>Jamoat salomatligi kafedrasini katta o'qituvchisi</i>
Abilov Ural Murodovich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini professori</i>
Norkulov Do'smurod Toshpo'latovich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini professori</i>
Iskandarov Sherzod Abdug'aniyevich	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti</i>
Nurbayeva Xabiba Botirovna	<i>Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi xodimi</i>

Moderatorlar

Alimova Saboxat Gazievna	<i>Ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti</i>
Nurbayeva Xabiba Botirovna	<i>Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi xodimi</i>

X-XII ASRLAR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIDA MUHIM ROL O'YNAGAN IJTIMOIIY OMILLAR

Laziz Yusupovich Maxmudov

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bu tezisda o'zbek xalqining milliy shakllanish kontekstida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy omillar uning milliy qiziqishlari haqida gapirib o'tilgan

Kalit so'zlar: davlatchilik, inson, ajdodlar, xalq, ijtimoiy omil.

Har bir xalqning milliy shakllanishida uning davlatchiligi va davlatchilik an'analari ham muhim rol o'ynaydi. Shuning bilan birga har bir xalqning milliy shakllanish davomida boshdan kechirgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning xalq tomonidan qay tarzda idrok etilishi yoki xalq ongiga qanchalik muhrlanib qolishi, shu xalqning millat sifatida shakllanishi bilan birga, milliy xarakter va mentalitetini ham shakllantirib boradi. Chunki inson o'zini, o'zi yashaydigan mamlakatning qonun-qoidalaridan tortib, u joylashgan hudud, urf-odat va qadriyatlar, rasm-rusmlar, din va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan belgilaydi. Endi u o'zini millat sifatida his qilishi uchun yuqorida aytib o'tgan belgilar uning milliy qiziqishlariga aylanishi kerak. Demak, bu yerda millatning qanchalik tez yoki uzoq vaqt davomida shakllanishi u boshidan o'tkazgan ijtimoiy va siyosiy jarayonlarning ijobiy yoki salbiyligiga, ta'sirchan yoki ta'sirchan emasligiga o'z-o'zidan bog'liqdir. Shunday ekan dastlab ajdodlarimiz ya'ni, o'zbek elati keyinchalik xalq sifatida shakllangan o'zbek xalqining milliy shakllanish kontekstida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy omillar uning milliy qiziqishlariga keskin ta'sir o'tkazgan. Bunga sabab bir tomondan, siyosiy kuchlar o'rtasidagi o'zaro ichki kurash va nizolar ikkinchi tomondan esa Markaziy Osiyo hududiga qilingan doimiy ravishdagi bosqinchilik yurishlari edi. Bu kabi omillar millat tarixida qanchalik ko'p kechsa uning shakllanishi shunchalik murakkab xususiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo xususan o'zbek xalqi tarixiga nazar tashlar ekanmiz, islom dini misolida bir dinning o'zi XIV-XV asrlar mobaynida unga bo'lgan turli xil yondoshuvlar natijasida ikki xil funktsiyani bajarganligini kuzatish mumkin. Bu ikki funktsiya mintaqada yuz bergan ikki buyuk uyg'onish davri bilan bog'liqdir. Ya'ni bu IX-X va XIV-XV asrlar bo'lib, aynan shu davrlarda bir tomondan o'zbek xalqi xalq sifatida shakllangan



bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu davrda milliy shakllanishdagi muhim ijtimoiy-siyosiy omillar yuz beradi. Bular - ijtimoiy omillar sifatida ma'naviyat, din, mafkura, iqtisodiyot bo'lsa, siyosiy omillar sifatida mavjud siyosiy tuzum va davlat boshqaruvi davomida erishilgan ulkan yutuqlar edi. Aynan shu davrlarda milliy shakllanish uchun ham siyosiy, ham ijtimoiy muhit mavjud edi. Islom dini zo'ravonlik asosida targ'ib qilingani bilan xalq xarakterida doimiy kurashlar natijasida shakllangan tolerantlik xususiyati milliy xarakterda har qanday zo'ravonlik yoki bag'rikenglik bilan qabul qilingan jihatlardan ham kelajak uchun yaxshilik yo'lida foydalanish sifatini shakllantirdi. Bu o'zbek xalqining identiklik jarayonida murakkab tarixiy vaziyatlardan foydalana olish, sharoitdan oqilona xulosa chiqarish kabi eng noyob fazilatlari edi.

Xususan o'zbek xalqining davlatchilik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, biz uni qadimgi Xorazm davlatidan tortib, to Amir Temurning markazlashgan davlati va undan keyingi davrlarni keltirishimiz mumkin. Bu davrlarning har biri aholi ongiga o'ziga xos tarzda ta'sir o'tkazish bilan birga, ma'lum bir dunyoqarashni ham shakllantirgan. Bugungi kunda olimlar o'zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligi haqidagi nazariyalarni ilgari surmoqda. Bu haqida tarixiy manbalar va yirik tarixiy asarlardagi ma'lumotlar ham xabar beradi. Boshqacha aytganda, tarixnavislikning rivojlanib borishi va ularda jamiyat hayotining turli yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarda o'z aksini topishi, o'zbek davlatchiligi boy taraqqiyot yo'liga ega bo'lib kelganini ko'rsatadi. Bundan tashqari dunyoga mashhur Strabon, Plutarx, Kvint Kurtsiy Ruf, Gerodot kabi tarixchilar bilan birga o'rta asrlar tarixshunosligida sulolaviy tarixlarga bag'ishlangan asarlar ham buni tasdiqlaydi. Ammo davlatchilikni bosh manbai bu - xalq hisoblanadi. O'zbekiston hududida tashkil topgan ilk davlatlar boshqa qabila va etnoslar birligi asosida vujudga keladi. Keyinchalik esa bu davlatlar siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaifligi tufayli ular o'rnida siyosiy jihatdan ustunlikka ega bo'lgan markazlashgan davlatlar tashkil topa boshlaydi. Bu markazlashgan davlatlar siyosiy-iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lganligi tufayligina uzoq muddat davomida boshqaruv va strategiyani saqlab tura olgan.

Mavorounnahr mo'g'ullar tomonidan istilo qilingandan so'ng, ular tomonidan amalga oshirilgan zulm va shavqatsizlik, qattiqqo'llik va xunrezliklardan tashqari hokimiyat tepasiga asosan Chingizxon va uning avlodlari bir so'z bilan aytganda, mo'g'ullar sulolasiga mansub vakillarning kelishi istilo qilingan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga to'la zid edi. Mo'g'ullar hukmronligi endigina shakllanib kelayotgan o'zbek xalqining milliy taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazgan holda, asrlar davomida



saqlanib va taraqqiyparvar mazmun kasb etib kelayotgan madaniyat, ma'naviyat, qadriyatlar, ilm-fan kabi sohalar rivojiga ham nuqta qo'ygan edi. Garchi islom dini mo'g'ullar davrida keng tarqalgan bo'lsa-da, bu din, aholi ongida din sifatida kuchli e'tiqod manbaiga aylanmagan. Chunki bu davrda islom dinini asosiy e'tiqod manbaiga aylanishi uchun birinchidan, ijtimoiy muhit yo'q edi ikkinchidan, mo'g'ullar bunga tish-tirnog'i bilan qarshi edi. Bir so'z bilan aytganda, bu davr o'zbek xalqi tarixidagi eng og'ir kechgan davrlardan edi.

Shundan kelib chiqqan holda XIV asrning 60-yillarida Mavorounnahrda hukm surgan nixoyatda og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z davrining bunday talabini yaxshi tushungan va u shuning uchun ham bor e'tiborini Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzishga qaratadi. Amir Temur o'z siyosatining g'oyaviy asosini tashkil etishda o'zbek xalqining tarixiy ildizlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan turk ulusini birlashtirish maqsadiga tayandi. Bunda u xalqni birlashtirish uchun yagona e'tiqodga birlashtirish lozimligin tushungan edi. Yagona e'tiqod manbaini shakllantirish Markaziy Osiyoda islom dinining rolini oshirish, tasavvuf tariqati vakillariga tolerant munosabatda bo'lish asosida qurilgan edi. Boshqa tomondan ushbu davrda tasavvufning naqshbandiya suluki yetakchi xarakter kasb etib, unda mehnatga, insonga bo'lgan ratsional munosabat, boshqa suluk, mazhab, din vakillariga tolerant kayfiyat ijtimoiy- siyosiy hayotda vaqt o'tib uyg'onish davri hodisasining shakllanishiga olib keldi: "So'fiylik g'oyalari ushbu davr ijtimoiy tafakkuriga ulkan ta'sir ko'rsatgan. Ulardan mavjud jamiyatning o'tkir ijtimoiy ziddiyatlarini hal etishda foydalanilgan. Bularning hammasini O'rta Osiyo jamiyatining keng qatlamlarini qamrab olgan keng harakatlariga qiyos etish mumkin. Bu jarayon XV asrning ikkinchi yarmida Movarounnahr jamiyatida naqshbandiya suluki va uning mashhur arbobi Xoja Ahror yetakchi mavqega ega bo'lganda o'z cho'qqisiga ko'tarilgan"

Bunday yuksak va mashaqqatli maqsadni amalga oshirishda Amir Temur ruhoniylar, harbiylar, savdogar va shahar hunarmandlariga tabaqalariga tayanib ish tutgan. Bundan tashqari u turk, arab, va eronliklar tarixini chuqur bilgan va amaliy jihatdan foyda keltira oladigan har qanday bilimlarni qadrlagan. U davlat ishlari uchun hamma narsaning foydali tomonlarini olishga harakat qilgan hamda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan har bir masalani hal etishda shu sohaning bilimdonlari va ulamolari bilan maslahatlashgan.

Amir Temur va Temuriylar davrining tarix oldidagi xizmatlari benihoya katta. Birinchidan, u mamlakatda kuchayib



ketgan feodal taoqoqlikka barham berib, yurt va xalqni o'z hukmi ostida birlashtira oldi va markazlashgan davlatni tuzdi. Xalq va millat rivoji uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-siyosiy omillar shu davrda yuzaga chiqdi va bu o'zbek xalqining milliy shakllanishida yetakchi ro'ly o'ynadi. Bundan tashqari iqtisodiy va madaniy sohadagi ulkan islohotlar xususan, hunarmandchilik, savdo-sotiq hamda madaniyat rivojiga zamin yaratib berdi. Shuningdek, Bugun biz "Temur va Temuriylar madaniyati", "Temuriylar davlati", "Ulug'bek va Samarqand astronomiya maktabi", "Navoiy" va "Bobur" "Beruniy" kabi qutlug' so'zlarni nafaqat o'zbekning balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida ham uchratar ekanmiz, bu kabi iboralarning zamirida Amir Temurning xizmatlari beqiyos ekanligini anglab yetamiz.

REFERENCES

1. Каримов Э.Э, Мадаева Ш.О. Темурийлар даврида тасаввуф тариқатлари ва ижтимоий-сиёсий ҳаёт. // Тошкент ислом университети илмий таҳлилий ахбороти. 2003, №2, 34-б.



CONTENTS MUNDARIJA

12. Matxoshimov, N. S. (2022). BERUNIYNING JAMIYAT TARAQQIYOTIGA QO'SHGAN ULKAN HISSASI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 40-42.
13. Maxmudov, K., & Davronova, C. (2022). AL-BERUNIYNING ILMIY-MADANIY MEROSNING AHAMIYATI VA UNI TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 43-45.
14. Maxmudov, L. Y. (2022). X-XII ASRLAR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN TARAQQIYOTIDA MUHIM ROL O'YNAGAN IJTIMOIIY OMILLAR. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 46-49.
15. Maxmudov, L. Y. (2022). GLOBALLASHUV DAVRIDA DIN VA YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISH MASALALARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 50-53.
16. Mirazimova, M. N., & Nematova, X. D. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING INSON KAMOLOTIDA MEHNAT TARBIYASI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 54-56.
17. Niyozova, N. S. (2022). ABU RAYHON BERUNIY ILMIY MEROSINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 57-60.
18. Shonazarov, O. (2022). BERUNIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA OLAM VA ODAM MUAMMOSINING TAHLIL ETILISHI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 61-64.
19. Bo'riev, O. (2022). ABU RAYHON BERUNIY TAVALLUDINING 1050 YILLIGIGA ABU RAYHON BERUNIYNING "YODGORLIKLAR" ASARI BA'ZI CHIZGILAR. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 65-73.
20. Shoyimov, S. S., & Primov, M. N. (2022). ABU RAYHON BERUNIY – BUYUK QOMUSIIY OLIM. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 74-77.
21. Turakulov, J., & Hakimovna, H. (2022). CREATIVE ACTIVITY OF ABU RAIKHAN BERUNI AND SOCIAL OUTLOOK. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 78-80.
22. Umarova, F. A., Norkulov, D. T., & Norkulov, S. D. (2022). ABU RAYHON BERUNIYNING ESTETIK G'OYALARI. *The significance of the scientific, cultural heritage of Abu Rayhon Beruni and its role in the development of science*, 3(1), 81-82.

